



### BUGUNGI KUNDA KUTUBXONALAR VA KITOB MUTOLAASIGA MUNOSABAT

**Nilufar Xamidova Salimovna,**

Xalqaro innovatsion universiteti

O'zbek filologiyasi va jurnalistika kafedrası  
o'qituvchisi



### TODAY'S ATTITUDES TOWARD LIBRARIES AND READING BOOKS

**Nilufar Khamidova Salimovna,**

Lecturer at the Department of Uzbek Philology and  
Journalism, International Innovative University



### ОТНОШЕНИЕ К БИБЛИОТЕКАМ И ЧТЕНИЮ КНИГ В НАШЕ ВРЕМЯ

**Нилюфар Хамидова Салимовна,**

Преподаватель кафедры узбекской филологии и  
журналистики Международного инновационного  
университета

**E-mail:** [hamidovanilufar961@gmail.com](mailto:hamidovanilufar961@gmail.com)

**Orcid:** <https://orcid.org/0009-0004-5652-6156>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18334461>

**Annotatsiya.** *Dunyoni faqat ilm bilan zabt etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yo'li esa bitta – kitob o'qishdir. Kitob insonning eng yaxshi do'sti va maslahatchisi, uning donolik va bilim manbaidir. Kitob tafakkur quroli, xazina kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun xalqimiz uni qadrlidi, obro'li, muqaddas deb bilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kitobxonlik, kitobxonlik darajasi, mutolaa, kitobxon va kutubxona, kutubxonalar fondi, Elektron kutubxona, Raqamli resurslar.*

**Аннотация.** *It is no secret today that the only way to conquer the world is through knowledge. And there is only one path to mastering knowledge deeply – reading books. A book is a person's best friend and advisor, a source of wisdom and learning. Because a book is a tool of thought, a key to treasure, and a source of intellect, our people have always regarded it as valuable, honorable, and sacred.*

**Ключевые слова:** *reading culture, level of readership, reading, reader and library, library collections, electronic library, digital resources.*

**Annotation.** *Сегодня никому не секрет, что покорить мир можно только с помощью знаний. А путь к глубокому освоению знаний один — чтение книг. Книга — лучший друг и советчик человека, источник его мудрости и знаний. Поскольку книга является орудием мышления, ключом к сокровищам и источником разума, наш народ всегда считал её ценным, уважаемым и священным.*

**Keywords.** *читательская культура, уровень чтения, чтение, читатель и библиотека, библиотечные фонды, электронная библиотека, цифровые ресурсы.*

### KIRISH

Insoniyat hayotida, jamiyat taraqqiyotida kitob va kutubxonalarning o'rni beqiyos. Har bir insonning kelajak orzulariga zamin yaratib beradigan maskan kutubxona hisoblanadi. Tarixdan bizga ma'lumki, insoniyat taraqqiyotining barcha



davrlarida axborot va ma'lumotlarni qayerlargadir qayd etish, saqlash, avloddan avlodga yetkazish har xil shakllarda namoyon bo'lgan. Dastlab tilning paydo bo'lishi, undan so'ng yozuvning vujudga kelishi fikrlarni kelajak avlodga yetkazish imkonini kengaytirdi. Avval xalq og'zaki ijodi ko'rinishida, keyinchalik yozma shaklda paydo bo'lgan ma'lumotlar almashinuvi og'zaki va yozma adabiyotning yaratilishiga zamin yaratdi. Buning natijasi o'laroq, dastlab og'zaki ko'rinishga ega matnlar yozma shaklga aylandi. Davrlar osha kitobning shakl-shamoyili, tashqi ko'rinishi, sifati va ishlab chiqarilishi takomillashib bordi.

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash, ularning qalbida pok insoniy tuyg'ular va yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda kutubxonalarning o'rni nihoyatda katta. Aholi dunyoqarashi, ongu tafakkurini ma'rifat ila nurafshon qilib kelayotgan kutubxonalar muqaddas maskanlar sirasiga kiradi. Ayni kunda kitob mutolaasi kerakmi, yo'qmi, degan savolni qo'yish xuddi tashna odamga suv ichasanmi, degan savolni berishga o'xshaydi. Zero, o'qish, ilm olishga intilish azal-azaldan xalqimiz fitratida mavjud. Davrlar evrilishi g'alati, bizlar kitob o'qishga mukkasidan ketgan 70-yillarda, ota-onalarimiz "Ko'p kitob o'qima, miyang suyulib ketadi", deb tanbeh berishardi. Bugungi yoshlarga kitob o'qishni gapirsang, ensasi qotadi. Ammo biz bu o'rinda yoshlarni mutlaqo ayblamoqchi emasmiz, agar jamiyatda bilim-ma'rifat, adabiyot qadr-qimmat topsa, albatta, aziz bolalarimiz kitobga qaytishlariga ishonaman. Bugun kitoblarni chop etish, ularni tarqatish tizimini takomillashtirish va eng muhimi, kitob chiqarish va kitobxonlikning davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotganidan qvonishimiz kerak.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLARNING TAHLILI**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqea bo'ldi. Mazkur farmoyish kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini yana bir yangi bosqichga ko'targanligi bilan izohlanadi. Ta'kidlanishicha, bugungi kunda matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo'lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilingan. 1677 ta matbaa korxonalari, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta hududiy birlik axborot-kutubxona markazi, tuman va shahar markazlaridagi ta'lim mussasalarida 200 ga yaqin axborot-



resurs markazlari tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari hamda “Kitob olami”, “Sharq ziyokori” va “O‘z davkitobsavdota’minot” majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan. Farmoyishning ibratli jihati shundan iboratki, unda kitob mahsulotlari nashr etish, tarqatish, kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, mavjud kamchilik, xatolar ro‘y-rost ochib berilgan. Ayniqsa, badiiy, ma‘rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta‘lim muassasalarini ta‘minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etilmagani, ta‘lim va madaniyat muassasalari uchun kitob xarid qilishga mablag‘lar yetarli darajada mavjud bo‘lgan manbalar hisobidan jalb etilmayotgani, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta‘lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotlarini o‘tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot qilishga qaratilgan tadbirlar yuksak talablar darajasida emasligiga alohida e‘tibor berilgan. Xorij tajribasini o‘rganish, yoshlar o‘rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o‘rganish kabi masalalarning ko‘tarilgani g‘oyatda tahsinga loyiqdir.

Kitob barchamizga charog‘on yo‘lni ko‘rsatishini, ma‘naviy olamimizni shakllantirishini, kelajakdagi yagona yagona to‘g‘ri yo‘lni tanlashga yordam berishini bilsakda, uni o‘qimasak, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyot ekanligini tushunsakda, ammo uni “kult” darajasiga ko‘tarmasak-bu holda bizning kitob to‘g‘risidagi tasavvurlarimiz xato bo‘lmaydimi?

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to‘g‘risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma‘naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash‘ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Arastu hakimdan Abu Ali Ibn Sinoga, Aflotundan-Abu Rayhon Beruniyigacha, Jaloliddin Rumiyan- Alisher Navoiygacha, Sohibqiron Amir Temurdan-Muhammadsharif Gulxaniyigacha yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsada ahamiyati yo‘qolmaydigan



tadqiqotu kashfiyotlari faqat va faqat kitob orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan chuqur o'rganilishi, ular ilmiy-ma'rifiy bisotiga bot-bot murojaat qilishning sababi ham mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir. Sharqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi quyidagi firklariga bir quloq tutaylik: "Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmayсан. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "Kitob aql qal'asidir", deganlar". (Mashriqzamin-hikmat bo'stoni. - Toshkent, 1997. 39-bet)

Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. Shuning uchun ham yurtimizda kitob bilan oshno bo'lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, qorachig'idek asraganlarni ziyoli deb ataganlar. Ziyoli-Nur tarqatuvchi, u o'zining xatti-harakatlari, faoliyati bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma'naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchilar hisoblangan. Darhaqiqat, har bir inson dunyoga kelar ekan, atrof-muhitga, o'zi o'sib-ulg'aygan jamiyatga tafakkur nigohi bilan boqib, undan ibrat oladi, xulosalar, fikr-tushunchalar bilan boyiydi va shularga tayangan holda inson bo'lib shakllanadi. Chinakam badiiy adabiyot ana shu fikru xulosalarni benihoya go'zal bir tarzda ifoda etadi, eng ta'sirchan, unutilmas voqealar vositasida teranlashtiradi, mustahkamlaydi. Bir so'z bilan aytganda, adabiyot odam bolasida chin insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Unutmasligimiz kerakki, shaxsiyati mazkur mezon va fazilatlardan mosuvo kimsa halol va yaxshi ishchi yoki xizmatchi tugul, tom ma'nodagi inson ham bo'la olmaydi. Fuqarolarida ushbu mezon va fazilatlar shakllanmagan jamiyatda esa sof ma'naviy-iqtisodiy taraqqiyotning bo'lishi mumkin emas. Bunday jamiyatni bir-birini aldovchi, talovchi, bir-birining haqini yeyishdan qo'rqmaydigan beshafqat olomon, desak, sira-sira xato qilmaymiz.

## MUHOKAMA



Bugungi kunda biz farzandlarimiz kitobdan uzoqlashib borayapti, degan gapga yopishib olib, bunda darrov zamonaviy texnika va texnologiyalarni, internetni ayblashga tushamiz. Holbuki, globallashtayotgan dunyoda butun insoniyat texnikadan unumli foydalanmoqda, lekin ular kitoblarni, ayniqsa, mumtoz adabiyotni aslo chetga surib qo'yishayoganlari yo'q. Kitobxonlik darajasi borasida jahon mamlakatlari reytinglarini ko'rib chiqib, bunga ishonch hosil qilasiz. Xorijda ushbu muammoni hal qilish yo'llari avvalgidan qizg'inroq, jiddiyroq yo'sinda olib borilmoqda. Turli anjumanlar, muhokamalar, adiblar bilan uchrashuvlar, kitob bayramlari sifati ortib bormoqda. O'rta maktablar dasturiga mutolaa bo'yicha maxsus darslar kiritilmoqda. Bu darslarda o'quvchilarda kitobga muhabbat, matnni tushunib, to'g'ri talqin qilish, eslab qolish ko'nikma va malakalari shakllantirilmoqda. Buning natijasida AQSh, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya, Finlyandiya mamlakatlarida kitobxonlar soni ancha ko'paygan.

Zamonaviy texnologiya va vositalar juda keng tarqalgan bugungi kunda yoshlarni, bolalarni kitob o'qishga qiziqtirish, ularni mutolaa jarayoniga jalb qilish murakkab vazifa bo'lib qolmoqda. Xo'sh, butun mamlakat bo'ylab kitob mutolaasiga rag'batni oshirish, kitobxonlar safini yanada kengaytirish uchun yana qanday ishlar amalga oshirilishi kerak? Nima qilinsa yoshlar, bolalar kitob o'qishga jon-jahdi bilan intiladi? Kitobxonlikni targ'ib qilishda yangi nashr qilingan asarlar reklamasini keng yo'lga qo'yish, mutolaani ommalashtirish bo'yicha ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Qishloq va mahallalarda kitobxonlar klublarini tashkil etishni rag'batlantirish, bolalar uchun kitob kechalari, o'qilgan asarlar muhokamalari, sovrinli tanlovlarni tashkil etish, yozda salqin, qishda issiq, qulay mebellarga ega tinch va osuda o'quv zallari, kitoblarni ijaraga berish, qarzga yoki pulini bo'lib-bo'lib to'lash mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish, olis tumanlar, uzoq qishloqlarda kerakli kitoblarga buyurtmalar berish shoxobchalarini barpo etish ham mumkin. Biz bilamizki, bugungi kunda kitob savdosi va narxi eng og'riqli nuqtamizga aylangan, desam aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ammo kitob kartoshka yoki piyoz emas, kitob bu kitob. Uni bir kunda yoki bir oyda sotib, ayniqsa, undan tezda foyda ko'rib bo'lmaydi. Kitoblar taqchilligi borasida gap ketganda avvalo narx muammosiga duch kelamiz. Kitob nafaqat bilimlar manbai balki, tarbiya quroli hisoblanadi. U bilan hayotimiz mazmunli va rang-barang, tuyg'ularimiz esa teran bo'ladi. Kitob inson ma'naviy taraqqiyot hosilasi bo'lishi barobarida o'zi ham taraqqiyotga xizmat qiladi. Yangilik qilishga, kashfiyotlarni ko'rishga, yangi narsalarni topishga o'rgatadi.



Donishmand Sitseron “Kitobsiz uy – qalbsiz tanaga o‘xshaydi”, deb bejiz ta’kidlamagan. Kitobsevarlar bo‘lgan xonadonda har doim vaqt mazmunli tashkil etiladi. Kitob javoni bor bo‘lgan xonadonning fayzu tarovati o‘zgacha. Bugun kitob do‘konlarimizda, axborot resurs markazlaridagi kitoblar orasida durdona milliy yodgorliklarimizdan – “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk”, “Temur tuzuklari”, “Xamsa”, “Boburnoma” singari asarlarni uchratish amrimahol. Zamonaviy, iste’dodli shoirlarimizning she’riy kitoblari ham sotuvlarda deyarli yo‘q hisobi. Alisher Navoiyning yigirma jilddan iborat asarlari ma’lum bir tirajlarda bosilib chiqdi. Ammo nazarimizda bular kam, chunki Navoiy nafaqat maktab va institut kutubxonalari, balki har bir o‘zbek xonadonida bo‘lishi zarur. Navoiyni qo‘ya turing, hatto Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani har yuzta o‘quvchidan bir yoki ikkitasiga to‘g‘ri kelayotganiga nima deysiz?! Qodiriyning eng mashhur asari shunchalik kam tirajda bosilayotgan ekan, boshqalar haqida gapirmay qo‘ya qolaylik. Necha ming yillardan buyon insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, har tomonlama yetuk, kasb-hunarli va albatta, baxtli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do‘st bo‘lish va kitob o‘qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o‘rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Hozir televizor va matbuotda chiqish qilayotgan ko‘pgina noshirlar, mutaxassislar bu borada aniq takliflar berishga ojizlik qilishyapti. Bizningcha, buning yechimi bor, bu ham bo‘lsa, adabiy doirada e’tirof etilgan, mutaxassislar tavsiya etgan kitoblarni yirik tirajlarda chop etish. Takror bo‘lsa-da aytamizki, muallif, kitob va kitobxon o‘rtasidagi uzilishni tiklash uchun bosilayotgan kitoblarning adadini qo‘rqmasdan oshirgan holda kitob bahosini tubdan arzonlashtirish lozim. Bunday kitoblar do‘konlarda uzoq vaqt turib qolmaydi. Qolaversa, kitob mualliflari bo‘lgan zahmatkash ijodkorlar ham mehnatiga yarasha qalam haqi, ya’ni rag‘bat oladi. Moddiy va ma’naviy rag‘bat esa ularni yanada yaxshi asarlar yozishga, kerak bo‘lsa, o‘z asarlari bilan dunyo adabiyotiga chiqishga undashi turgan gap.

Bugungi kunda psixolog-olimlarimiz kitob mutolaa qilishning foydasi haqida quyidagilarni aytishmoqda:

- Mutolaa asabni tinchlantiradi.
- Mutolaa uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi.
- Mutolaa qalbni yumshatadi.
- Mutolaa miya faoliyatini yaxshilaydi.
- Mutolaa tushkunlikka qarshi kurashishga yordam beradi.



-Mutolaa insonni go‘zallashtiradi.

-Mutolaa hayotdagi maqsadni anglashga va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

-Kitob o‘qiydigan insonlar hayotda faol bo‘lishadi.

-Mutolaa xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi.

-Mutolaa so‘z boyligini oshiradi.

-Mutolaa yozuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi.

-Mutolaa chet tilini o‘rganishni osonlashtiradi.

-Mutolaa tinglash qobiliyatini rivojlantiradi.

-Mutolaa ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

-Mutolaa yaxshilik qilishga undaydi.

Kitob bizning hayotimizga faqat va faqat yaxshilik olib keladi.

Unga hamma: qariyalar, o‘rta yoshlilar, yoshlar va hatto bolalar ham muhtoj. Eng muhimi har bir inson o‘z yoshiga va dunyoqarashiga mos keladigan kitobni tanlay olishi kerak. Shu o‘rinda kitoblar saviyasi va albatta, mualliflar masalasiga ham to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bugun axborotlar oqimi nihoyatda katta, cheksiz. O‘quvchi shu axborotlar orasidan eng saralarini, o‘ziga ma‘qulini, muhimini tanlab, saralab olib o‘qishi kerak. Buning uchun eng yaxshi asarlar yuzasidan xolis ilmiy munozaralar, amaliy mashg‘ulotlar olib borilishi maqsadga muvofiq. Yaxshi kitoblarning televidenie, OAVdagi targ‘ibot va taqdimotlari ham ayniqsa, katta samara beradi.

### **XULOSA**

Kitob tafakkur qanotidir, degan edi alloma adibimiz Oybek. Biz bugun yangi davrga qadam qo‘ydik. Dunyo yana ilmga, tafakkur — intellektga intilmoqda. Zero, insoniyat uchun faqat va faqat tafakkurgina najot bo‘la oladi. Chindan ham ulug‘ va mo‘‘tabar kitoblar insoniylik, halollik, shafqat va imon urug‘larini qalbimizga ekadi. Bizni olamshumul kashfiyotlar, buyuk bunyodkorliklar sari da‘vat etadi. Mushkul onlarimizda bizga hammaslak va do‘st bo‘lib to‘g‘ri va oqil yo‘lni ko‘rsatadi. Shu boisdan hayotimizda “o‘qimishli inson” degan ibora boshqacha jaranglaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Osiyo Qosimova; Umumiy kutubxonashunoslik: O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.- T.: “O‘qituvchi”, 1994.350 b.
2. Axunjanov E.O. Vatan kutubxonachi I lgi tarix:-I -qism Darslik / -1 oshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004,-106 b.
3. Axunjanov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2 Darslik / - Toshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150 b.
4. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish.-T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.-B.3-68.